

TIJORAT BANKLARI QIMMATLI QOG‘OZLARI BOZORIDAGI INNOVATSIYA FAOLIYATINING QIYOSIY TAHLILI

Niyozmetov Doniyor Rejabbayevich

Mamun Universiteti katta o‘qituvchisi

Kirish.

Tijorat banklari xalqaro moliyaviy amaliyotda nafaqat qimmatli qog'ozlar bozorida investitsiya va emissiya operatsiyalarini amalga oshiruvchi moliyaviy institutlar sifatida maydonga chiqadi, balki mazkur bozorga investorlardan, ayniqsa aholidan moliyaviy mablag'larni jalb qiluvchi va ularni samarali qayta taqsimlovchi "moliyaviy kanal" sifatida ham muhim rol o'ynaydi. Shunday qilib, globallashtirish jarayonining hozirgi bosqichida, ushbu masala nafaqat mahalliy darajada, balki xalqaro miqyosda ham tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Asosiy qism

Bugungi kunda qimmatli qog'ozlar bilan birja savdolarini o'tkazish nafaqat investorlar balki, mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishida muhim o'rin egallaydi. Qimmatli qog'ozlar bilan birja savdolarini o'tkazishning mohiyati shundaki, unda aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar kabi moliyaviy vositalarni sotib olish va sotish jarayonini tashkil etish hamda soddalashtirish jarayoni tushuniladi. Shuningdek, birja operatsiyalari umumiy hajmining 35,83 foizi bank sektori qimmatli qog'ozlari hissasiga to'g'ri kelgan. Ushbu soha emitentlari bilan tuzilgan bitimlarning umumiy hajmi 971,97 mlrd so'mni tashkil etgan.

Mamlakatimizda emitentlarning qimmatli qog'ozlari bilan tuzilgan bitimlar hajmi ,(mlrd. so'mda) [1]

Yuqoridagi 1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2019-yilda Respublika bo'yicha 11 viloyatlardagi emitentlar qimmatli qog'ozlari bilan bitimlar bo'lib amalga oshirilgan.

Eng katta savdo hajmi Toshkent viloyatiga to'g'ri keladi, 49 ta emitentlarning

Hududlar	Yillar					2023 yilda 2019 yildan farqi (+,-)
	2019	2020	2021	2022	2023	
Andijon viloyati	34,19	31,23	31,61	16,76	30,87	-3,32
Buxoro viloyati	1,97	12,36	21,99	16,05	1,93	-0,04
Toshkent shahri	275,64	356,65	425,78	2 658,1	2 022,8	1747,16
Jizzax viloyati	0	0,35	0,41	1,26	2,4	2,4
Qashqadaryo viloyati	79,87	13,32	0,22	12,51	11,77	-68,1
Navoi viloyati	15,7	18,64	41,88	14,6	4,82	-10,88
Namangan viloyati	22,58	23,87	25,25	4,03	5,31	-17,27
Qoraqalpog'iston Respublikasi	0	3,61	4,92	39,29	6,91	6,91
Samarqand viloyati	79,87	86,52	90,99	14,16	1,08	-78,79
Sirdaryo viloyati	1,22	3,68	0,50	3,26	0	-1,22
Toshkent viloyati	34,19	46,86	935,95	1 962,8	50,92	16,73
Farg'ona viloyati	32,55	39,52	41,0	60,10	571,64	539,09
Xorazm viloyati	1,05	3,28	0,02	16,39	9,24	8,19

qimmatli qog'ozlari bilan 275,64 mlrd.so'mlik 7 839 ta bitim imzolandi. Andijon viloyati – 5 ta emitent qimmatli qog'ozlari savdolarida ishtirok etib, ular bilan 37,36 mlrd. so'mlik 2 526 ta bitim; Toshkent viloyati – 9 ta emitent qimmatli qog'ozlari bilan savdo qilinib, ular bilan 34,19 mlrd. so'mlik 3 467 ta bitim; Farg'ona viloyati – 9 ta emitentlar qimmatli qog'ozlari bilan 32,55 mlrd. so'mlik 9 879 ta bitim(“Kvars” AJ SPO ni hisobga olmagan holda) amalga oshirilgan. Navoiy viloyatining 2 ta emitent qimmatli qog'ozlari bilan 15,7 mlrd. so'mlik 6 334 ta bitim imzolangan. Namangan viloyatida bitta emitentning qimmatli qog'ozlari bilan 22,58 mlrd. so'mdan iborat bitta bitim amalga oshirilgan. 2019 yilda qolgan viloyatlardagi emitentlar qimmatli qog'ozlari bilan 2 mlrd. so'mdan kam bo'lmagan bitimlar bo'lib o'tgan.

2-jadval

Markaziy bank tomonidan muomalaga chiqarilib, tijorat banklari orasida joylashtirilgan obligatsiyalar tahlili [3]

№	Yillar	Muomalaga chiqarilgan obligatsiyalar hajmi, mlrd. soʻm	Oʻrtacha tortilgan foiz stavkasi, foizda
1.	2020	5 270,8	14,1
2.	2021	24 200,0	13,5
3.	2022	86 948,2	17,0
4.	2023	25 516,9	16,4
5.	01.06.2024	2 000,0	16,0

Mamlakatimizda qatʼiy pul-kredit sharoitlariga erishish maqsadida bank tizimi likvidligida yuzaga kelgan profisitni samarali tartibga solish, banklarning daromad keltirmaydigan aktivlarini daromad keltiradigan muqobil instrumentlar bilan almashtirish va shu orqali boshqa aktiv eratsiyalarga (xususan, kreditlarga) boʻlgan narx bosimini pasaytirish maqsadida Markaziy bank obligatsiyalari muomalaga chiqarila boshlandi. Xususan, 2020-yildan boshlab Markaziy bankning jami 5 270,8 mlrd. soʻmlik qisqa muddatli obligatsiyalari muomalaga chiqarilib, tijorat banklari oʻrtasida joylashtirildi. Ushbu koʻrsatkichning eng yuqori davri 2022-yilda 86 948,2 mlrd. soʻmlik obligatsiyalar muomalaga chiqarilib, tijorat banklari oʻrtasida joylashtirilgan.

3-jadval

Mamlakatimiz tijorat banklarining investisiya portfeli tahlili, foizda

	Koʻrsatkichlar	Yillar 1-yanvar holatiga					2024-yilda 2020-yilga nisbatan oʻzgarishi, (+,-)
		2020	2021	2022	2023	2024	
.	Investisiyalar va boshqa qimmatli qogʻozlar	1,2	2,6	4,4	5,7	5,0	3,8

.	Chiqarilgan qimmatli qog'ozlar	1,3	3,1	2,8	2,3	2,4	1,1
---	--------------------------------------	-----	-----	-----	-----	-----	-----

Mamlakatimiz tijorat banklarining investisiya portfelida tahlilidan ko'rinadiki, 01.01.2024-yilda 01.01.2020-yilga nisbatan investisiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarning hajmi 3,8 foizga, chiqarilgan qimmatli qog'ozlar hajmi esa 1,1 foizga o'zgargan. Shuningdek, investisiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar tijorat banklarining investisiya portfelida juda ham kam ulushga ega. Lekin shunga qaramasdan kichik hajmda bo'lsa ham o'sish tendensiyasini nomoyon etgan. Chiqarilgan qimmatli qog'ozlar ham past ulushga ega bo'lib 2020-yil 1-yanvar holatiga banklarining investisiya portfelida 1,3 foizni tashkil etgan bo'lishi bilan bir vaqtda kamgina o'sishni ko'rsatgan yani 2024-yil 1-yanvar holatiga 1,1 foiz ortib, 2,4 foizni tashkil etgan.

Xulosa.

Mamlakatimiz tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi investitsiya operatsiyalari hajmi YIMga nisbatan sezilarsiz ulushga ega bo'lish bilan birga, absolyut summada ham pasayib borish tendentsiyasiga ega bo'lgan;

Tijorat banklari uzoq muddatli barqaror daromad olish strategiyasiga ega emas, shuningdek ularning boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning faoliyatida ulushli huquqlari shakllanmagan;

Tijorat banklarining emission operatsiyalari sifatida asosan ustav kapitalini shakllantirish uchun muomalaga chiqargan qimmatli qog'ozlari bilan bog'liq operatsiyalari nisbatan rivojlangan, biroq ushbu operatsiyalari bo'yicha ham bozor baholari shakllanmaganligi va ularni sotishda shaffofligi bo'yicha ayrim dolzarb masalalar saqlanib qolgan;

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bankovskoe delo. Uchebnik dlya vuzov.2-e izd. /Pod red. G.Beloglazovoy, L.Krolivetskoy. –SPb.: Piter, 2008. -400.

2. Qoraliev T.M. Sattarov O.B. va boshqalar. Tijorat banklari faoliyati tahlili. O'quv qo'llanma. –T.: “Iqtisod-Moliya”, 2013. 192 b.
3. Abdullaeva Sh. Pul va banklar. –T.; 2010. 425 b.
4. Rouz P.S. Bankovskiy menedjment. M.: Delo-LTD. 1995.-743 s.
5. [2.https://uzcsd.uz](https://uzcsd.uz) sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.
6. [3.https://cbu.uz/](https://cbu.uz/) sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi AJ “O'zmilliybank” sayti.